

**“O‘zagroinspeksiya” tomonidan 2025-yil yanvar-sentabr oylarida amalga
oshirilgan ishlar to‘g‘risida
M A ’ L U M O T**

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Agrosanoat majmui ustidan nazorat qilish inspeksiyasi tomonidan qishloq xo‘jaligi sohasidagi qonunchilik talablariga rioya etilishi yuzasidan quyidagi ishlar amalga oshirildi.

Qishloq xo‘jaligi sohalaridagi qonun va qonunosti hujjatlariga rioya qilinishi va ijrosi yuzasidan Inspeksiya tomonidan 88 502 ta nazorat tadbirlari o‘tkazilib, tashkilot va korxonalarga 72 688 ta ogohnomalar kiritildi.

Shuningdek, 9 845 ta xo‘jalik yurituvchi subyektlarda profilaktika tadbirlari o‘tkazilib, amaliy yordamlar ko‘rsatildi.

Xususan, 13 095 ta o‘tkazilgan tekshirishlar davomida aniqlangan qonunbuzilish holatlari yuzasidan Inspeksiya vakolati doirasida huquqbuzarlarga nisbatan 6 702 ta holatda 9 957 mln. so‘m ma‘muriy jarimalar qo‘llanilgan.

Shu bilan birga, 4 154 ta taqdimnomalar tegishli tashkilot va idoralarga kiritildi, 2 252 ta materiallar qonuniy qaror qabul qilish uchun sud va boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlarga yuborilgan.

Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlardan foydalanishni nazorat qilish sohasida qishloq xo‘jaligi yerlaridan maqsadli foydalanilishi bo‘yicha monitoringlar olib borilib, 1 980 ta holatda 321,5 gektar yer maydonlarida qonunbuzilish holatlari aniqlanib, ularga nisbatan qishloq xo‘jaligi yer maydonlarini o‘zboshimchalik bilan qishloq xo‘jaligi muomalasidan chiqarilganligi sababli 183,3 mlrd. so‘m miqdorida qishloq xo‘jaligiga yetkazilgan zarar hisoblandi.

Jumladan, 1 820 ta holatda 226,5 gektar maydonda o‘zboshimchalik bilan egallab olib qurilish qurish, 124 ta holatda yerdan foydalanuvchi tomonidan o‘ziga ajratilgan yer maydonining 20,6 gektarida ruxsatsiz qurilish qurish, 35 ta holatda 73,8 gektar maydonda ruxsatsiz tuproqni unumdor qatlamiga va 1 holatda 0,6 gektar maydonda yer qonuchilik hujjatlariga zid ravishda yer ajratish natijasida yetkazilgan zarar hisoblangan.

Qishloq xo‘jaligi ekinlari navlarini joylashtirish, nav sofliги va urug‘larning sifati sohasidagi davlat siyosatining ijro qilinishi, urug‘larni tayyorlash, qayta ishlash, saqlash, sertifikatlash va ulardan foydalanishda texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar talablariga muvofiq amalga oshirilishi ustidan nazorat tadbirlari amalga oshirildi.

Xususan, 2025-yil hosili uchun 80,9 ming gektar urug‘lik paxta maydonlarida g‘o‘zaning xar-bir fazasida o‘tkaziladigan agrotexnik tadbirlari muddatlarida va sifatli o‘tkazilishi yuzasidan monitoring qilib borilmoqda.

Jumladan, 2 044 ta subyektlar, shundan 1 901 ta tanlovdan o‘tgan subyektlar 72,5 ming gektar, 20 ta elita urug‘chilik xo‘jaliklari 832 gektar, 19 ta ilmiy muassasalar 445 gektar va 104 ta xususiy urug‘chilik xo‘jaliklari 7,1 ming gektar maydonda urug‘lik yetishtirish maqsadida chigit ekilgan.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlarda urug‘lik uchun ekilgan g‘o‘za maydonlarida agrotexnik tadbirlarini o‘z muddatlarida va sifatli bajarilishi yuzasidan monitoringlar o‘tkazildi.

O'tkazilgan monitoringlar natijasida jami 35 ta subyektlarning 2 402 gektar (1-monitoringda 13 ta subyektlarning 848 gektar, 2-monitoringda 10 ta subyektlarning 621 gektar, 3-monitoringda 12 ta subyektlarning 933 gektar) urug'lik g'oz maydonlarida belgilangan agrotexnik tadbirlarni o'z vaqtida bajarilmaganligi sababli urug'lik hisobidan chiqarilgan.

Shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlarda g'oz urug'chiligi sohasida faoliyat olib borayotgan subyektlarning urug'lik g'oz maydonlarida tuman aprobatsiya ishchi guruhi tomonidan aprobatsiya ko'rigi o'tkazilishi nazorat qilindi.

Natijada, o'tkazilgan aprobatsiya tadbirlarining yakuniga ko'ra 55,6 ming gektar urug'lik g'oz maydonlari yaroqli deb topilgan.

Ushbu urug'lik g'oz maydonlaridan 42,7 ming tonna urug'lik chigit tayyorlanishi kutilmoqda.

Shuning bilan birga, 2026-yil hosildan urug'lik don yetishtirish maqsadida tanlovlarda ishtirok etish uchun 122 ta tumandan 1 947 ta subyektlar (69 332 gektar) tomonidan arizalar topshirilgan.

O'tkazilgan tanlov natijalariga ko'ra 1 912 nafar xo'jaliklar 68 300 gektar yoki 98,5 foiz maydonda urug'lik don yetishtirish huquqini qo'lga kiritgan bo'lsa, 35 nafar xo'jaliklar (1 032 gektar) turli sabablarga ko'ra tanlovdan o'ta olmagan.

Tanlovlarning to'g'ri va haqqoniy o'tkazilishini ta'minlash maqsadida o'tkazilgan nazorat tadbirlari davomida 57 ta holatda tanlovlarning belgilangan muddatlarda o'tkazilmaganligi, 15 ta holatda fermer xo'jaliklarining noto'g'ri tanlab olinganligi ma'lum bo'ldi.

Aniqlangan holatlarning kelgusida takrorlanmasligini oldini olish maqsadida Inspeksiyaning hududiy boshqarmalari va tuman bo'limlari tomonidan tanlov komissiyalari va qishloq xo'jalik bo'limlariga 6 ta taqdimnomalar, 33 ta yozma ko'rsatmalar kiritildi.

Paxta xom-ashyosi, don va uni qayta ishlashdan olingan mahsulotlardan foydalanishni nazorat qilish sohasida, don korxonalari tomonidan kelib tushgan 207 ta f-30 shakldagi tozalov dalolatnomalari o'rganilib tegishli xulosalar berildi.

Davlat ehtiyojidagi donlardan oqilona va maqsadli foydalanilishini ta'minlash, mamlakat ichida sotishda, eksport-import jarayonlarida me'yoriy hujjatlarga rioya etilayotganligini nazorat qilish bo'yicha 2025-yilda mamlakatimizga import qilingan 688 ming 230 tonna don mahsuloti hamda 84 ming 773 tonna unning sifati tahlil qilinib, 3 220 ta tegishli xulosalar berildi.

Shuningdek, davlat ehtiyojlari uchun qabul qilingan donlardan oqilona va maqsadli foydalanilishini ta'minlash, mamlakat ichida sotishda me'yoriy hujjatlarga rioya etilayotganligi qat'iy nazoratga olinganligi natijasida 2025-yilning yanvar-sentabr oylarida prognozga nisbatan jami 21 ming 728 tonna tabiiy yo'qotish miqdori iqtisod qilinishiga erishildi.

Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 25-iyundagi "Ichki bozorni un va non mahsulotlari bilan barqaror ta'minlash bo'yicha amalga oshirilishi lozim bo'lgan chora-tadbirlar to'g'risida"gi 146-sonli qarori ijrosi yuzasidan ichki bozorni sifatli

un mahsulotlari bilan uzluksiz ta'minlash maqsadida 47 ta tadbirkorlik subyektlarida un ishlab chiqarish quvvatlari mavjudligi, texnologik jarayonlar amaldagi qonunchilik talablariga muvofiq yoki muvofiq emasligi o'rganilib, tegishli xulosalar

rasmiylashtirildi va ro'yxatga kiritish maqsadida Vazirlar Mahkamasiga hamda Iqtisodiyot va Moliya vazirligiga xatlar yuborildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 17-yanvardagi PQ-3479-sonli Qarori 2-bandiga asosan "O'zagroinspeksiya" tomonidan paxta texnik chigitini to'liq texnologik siklda maqsadli qayta ishlanishi hamda mahsulotlarning sifatini tasdiqlovchi gigiyenik xulosaga ega ekanligi yuzasidan nazorat tadbirlari o'tkazildi.

Jumladan, 2025-yilda 38 ta yog'-moy korxonalaridan 18 tasining faoliyati belgilangan talablarga muvofiq emasligi aniqlanibdi va ularga nisbatan jami 38 ta (18 ta yozma ko'rsatma, 20 ta ogohlantirish) ta'sir choralari qo'llanilgan.

2025-yil paxta hosilini qabul qilish uchun 418 ta maskanlarda mavsumga tayyorgarlik va ta'mirlash ishlari nazoratga olindi.

Xususan, maskanlarni o'rganish jarayonida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan paxta to'qimachilik klasterlari va kooperatsiyalarga hamda tuman hokimliklariga jami 551 ta (*shundan, 133 ta yozma ko'rsatma, 12 ta taqdimnoma va 406 ta ogohlantirish*) ta'sir choralari qo'llanildi.

Bugungi kunda paxtaning navi, sinfi, chegirma miqdori va sifati to'g'ri tahlil qilinishi, paxta topshiruvchi va qabul qiluvchi o'rtasida yuzaga keladigan nizoli holatlarni tezkorlik bilan joyida hal etilishi qat'iy nazorat qilinmoqda.

Jumladan, joriy yil 30-sentabr holatiga jami 257 ta nizoli holatlar, shundan, 57 ta holatda paxtaning navi va sinfi, 200 ta holatda paxta xom-ashyosining iflosligi va namligi bo'yicha. Ushbu nizolarning 217 tasi (84,4%) fermer xo'jaliklari, 40 tasi (15,6%) korxonalar foydasiga hal etilgan.

Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 31-maydagi 345-sonli qarori ijrosi yuzasidan 2025-yil uchun davlat resursiga 2 mln. 677 ming 624 tonna sifatli boshqoli don qabul qilinishiga erishildi.

2025-yilning o'tgan davrida qishloq xo'jaligi, melioratsiya va yo'l qurilish texnikalariga 37,5 mlrd. so'mlik davlat xizmatlari ko'rsatilgan.

Xususan, 132 970 dona qishloq xo'jaligi, melioratsiya va yo'l qurilish texnikalari yillik texnik ko'rikdan hamda 30 454 dona davlat ro'yxatidan va qayta ro'yxatdan o'tkazildi.

Qishloq xo'jaligi, melioratsiya va yo'l qurilish texnikalariga davlat ro'yxatiga olinganligi to'g'risida 42 206 dona texnik pasport va 25 693 dona davlat raqam belgisi hamda 7 868 dona texnik guvohnoma, 14 353 dona traktorchi-mashinist guvohnomalari rasmiylashtirib berilgan.

Shu bilan birga, 2025-yil bahorgi dala ishlarida qatnashadigan 8 turdagi jami 134 936 dan ortiq qishloq xo'jaligi texnikalarini hamda g'alla o'rimi mavsumida qatnashgan 3 104 dona don o'rish kombaynlari, paxta terish mavsumida 912 dona paxta terish mashinalari va 30 686 dona tirkamalar to'xtovsiz ishlashi bo'yicha tizimli ishlar tashkil etildi.

2025-yilning yanvar-sentabr oylarida jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan Inspeksiya kelib tushgan 1 076 ta murojaatlar ko'rib chiqilgan.

Shuningdek, sohaga oid muammolarni joyiga chiqqan holda muloqot qilish orqali o'rganish hamda ularni hal etish maqsadida o'tkazilgan sayyor qabul va uchrashuvlarda 29 068 nafar jismoniy va yuridik shaxslarning vakillari qabul qilinib, ularning muammolariga joyida yechim topilgan.

Inspeksiya faoliyatini keng targ'ib qilish maqsadida jami 8 546 marotaba targ'ibot tadbirlari o'tkazilgan, shundan 6 713 tasi ommaviy axborot vositalarida va 1 833 tasi ommaviy tadbirlarda chiqishlar orqali amalga oshirilgan.

Davlat xizmatida kadrlar bilan ishlash tizimini raqamlashtirish va kadrlar harakati ustidan doimiy monitoring olib borish maqsadida lavozimlarga tayinlangan va ozod etilgan xodimlar haqida ma'lumotlar "Yagona milliy mehnat tizimi" dasturiy apparat kompleksiga hamda "hrm.argos.uz" platformasiga kiritilishi taminlanmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Davlat mustaqilligining 34 yilligi bayrami munosabati bilan, "O'zagroinspeksiya" xodimlari o'rtasida joriy yilning 20-26-avgust kunlari sportning stol tennisi turi bo'yicha O'zagroinspeksiya boshlig'i kubogi-2025 musobaqasi o'tkazildi.

Shuningdek, Davlat mustaqilligining o'ttiz to'rt yillik bayramiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish bo'yicha chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqildi va bayram tadbirlariga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish bo'yicha ishchi guruh tuzildi.

"O'zagroinspeksiya" markaziy apparati tarkibiy bo'linmalari, hududiy boshqarmalari va tuman bo'limlari hamda "Qishloq xo'jaligi mahsulotlari sifatini baholash markazi"da ushbu chora-tadbirlar rejasiga asosan "Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun!" degan ezgu g'oyani o'zida mujassam etgan bayram tadbirlari tashkil qilindi.

Bundan tashqari, Inspeksiyaning hududiy boshqarmalari va tuman bo'limlarida qatag'on qurbonlari xotirasini yod etish kuni munosabati bilan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar o'tkazildi.

2025-yilda paxta, don va ulardan olingan mahsulotlarni hamda qishloq xo'jaligi ekinlari urug'liklarini sertifikatlash va qo'shimcha xizmatlar bo'yicha, jami 43,7 mlrd. so'mlik xizmatlar ko'rsatildi.

Jumladan, markazning 4 ta sertifikatlashtirish organi va 41 ta sinov laboratoriyalari tomonidan qishloq xo'jaligida xizmatlar ko'rsatilib kelinmoqda.

"O'zagroinspeksiya" faoliyatiga doir me'yoriy-huquqiy hujjatlar va Hukumat tomonidan berilgan topshiriqlarning har birini o'z vaqtida va sifatli bajarilishi ustidan kunlik nazorat o'rnatilgan hamda amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan axborot berib borilishi ta'minlanadi.

Axborot tariqasida kiritilmoqda.